

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

**Namangan davlat universiteti
rektori**

S.T.Turg‘unov

_____ 2024-yil

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni
Namangan davlat universitetining “60420100 - Yurisprudensiya
(faoliyat turlari bo‘yicha)” ta‘lim yo‘nalishiga suhbat asosida
o‘qishga qabul qilish bo‘yicha**

DASTUR

60420100 - Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)

Namangan -2024

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022-yildagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomiga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:



M.A.Akayeva, Davlat huquqi va boshqaruvi
kafedrası mudiri, yu.f.n.dotsent



R.X.Boymirzayeva, Davlat huquqi va
boshqaruvi kafedrası katta o'qituvchisi

KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Suhbat Qaror bilan tasdiqlangan **"Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizam"** asosida o'tkaziladi.

1.Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

Universitet rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil universitetda saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni universitetga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, universitet tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan

sanadan uch kundan kechikmay universitetda tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim.

Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi

- I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);
- IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

3. Baholash mezonlari

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar universitet qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi **67** ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

4. Apellyatsiya komissiyasi

Universitetda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida universitetda to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5. Suhbat natijalari

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda universitet rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil universitetda saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash universitet talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida universitetning budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni Namangan davlat universitetining "60420100 - Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha

SAVOLLAR

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasida 2024 yil siyosiy hayotida qanday siyosiy – huquqiy jarayonlar bo'lib o'tadi? O'zbekiston Respublikasi qanday davlat? O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlariga ta'rif bering. Mamlakatimizda oliy ta'limga kirish imtihonlari haqida gapirib bering. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining huquqiy asoslarini tavsiflang. O'zbekiston Respublikasida 2024-yil qanday nomlangan? Davlat suvereniteti va davlat mustaqilligi tushunchalari haqida fikrlaringiz. Davlat nima? Renessans tushunchasi va u qanday jarayon? O'zbekiston Respublikasida 3-Renessans davri va uning rivojlantirish asoslarini nimalarda kuzatish mumkin. Yangi O'zbekiston va Yoshlarga berilayotgan e'tibor haqida. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining ta'lim va tarbiya sohasidagi amaliy ifodasining tahlili. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirishga doir amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni tahlil eting. Qonun ustuvorligi va uni amalga oshirish mexanizmlari. Inson huquqlari va erkinliklarining xalqaro va milliy

huquqiy asoslari. Iqtisodiy o'sish va unga ijobiy ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalardagi faol hamkor bo'lgan xorijiy davlatlari. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti. Korrupsiya nima va korrupsiyaga aloqador jinoyatlarga ta'rif bering. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatdagi pozitsiyasi haqida. Jamiyatimizda ijtimoiy hamkorlik haqida. Jamoatchilik nazorati va uning mexanizmlarini tavsiflab bering.

Ayollar huquqlari va ularning huquqiy kafolatlari. O'zbekiston Respublikasida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi. Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni. O'quvchi va yoshlarning ta'lim sohasidagi huquqlari. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy printsiplari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar.

O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis qonunchilik palatasiga saylovlar o'tkazishning huquqiy asoslari. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati tushunchasi. Huquqiy davlatni shakllantirish. Xalq hokimiyati rejimini ta'minlashda qonunning roli. Davlat, huquq, shaxs tushunchalarni va ularning o'zaro bog'liqligi. O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning konstitutsiyaviy asosi. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Huquqiy davlat va hokimiyatlar bo'linish printsiplari. Oliy ta'lim sohasida davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga berilayotgan imtiyozlar va yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlar.

Mamlakatimizda huquqiy ta'limning rivojlantirishga oid so'nggi yillardagi islohotlar. Fuqarolik jamiyati institutlari, ularning davlat organlari bilan ijtimoiy sherikligi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasida Siyosiy partiyalarning roli. Jamoat birlashmalari va davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish masalalari. Yoshlarga tadbirkorlik sohasidagi imkoniyatlar. Ish bilan ta'minlash, ishga joylashtirish: muammo va yechimlar. O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlantirishda Taraqqiyot strategiyasining mazmun va mohiyati. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyasining mazmun va mohiyati. O'zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish. O'zbekistonda yoshlar va ta'limdagi imkoniyatlar.

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

Inson omili va jamiyatning insonga qo'ygan talablari. Yuristning kasb etikasi. Muomala madaniyati. Insonning sha'ni, qadr –qimmati va obro'si. Huquqshunoslik kasbi etikasi. Yurisprudensiya sohasining yo'nalishlari. Yuridik

til va uning o'ziga xos xususiyatlari. Og'zaki va yozma yuridik nutq. Yurist faoliyati va adabiy tilning talaffuz me'yorlari. Rasmiy uslub va uning yurist faoliyatidagi o'rni. Prokurorning ayblov nutqi. Advokatning himoya nutqi. Sud muzokarasi va uning o'ziga xosliklari. Sud notiqi. Yuristning nutq odobi. Huquqbuzarlik va unga qarshi kurashish yo'llari. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. Huquqiy bilim, huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura tushunchalari. Huquq ijodkorligi va qonun ijodkorligi. Insonparvarlik prinsipi. Inson huquqlarini ta'minlash. Huquqbuzarlikka qarshi kurashish yo'llari. Jinoyatchilikka qarshi kurashish usullari.

Aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish. Huquqni muhofaza qilish muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish. Fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari. Aholining huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari. Jamiyatda ijtimoiy faol va qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish.

Davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning qonunga, xamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish. Fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash. Huquqshunoslik sohasida xizmatchilarning kasb odobi. Huquqni muhofaza qilish idoralarining xodimlari va jamiyatning boshqa kasb egalarining qanday fazilatlarida umumiylik mavjud? Yurist kasbini tanlashdan maqsadingizni tushuntirib bering. Umumiy o'rta ta'lim sohasida o'quvchilarga huquqiy ta'lim berishda nimalarga e'tibor qaratasiz? Qonun ustuvorligini ta'minlashda jamiyatda qanday usullardan foydalanish natijadorlik beradi?

Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqshunosning kasbiy madaniyatining o'ziga xosligini nimalarda ko'rish mumkin. Beqarorlik, beparvolik va ma'suliyatsizlik – bu illatlarga sizning munosabatingiz. Yurist kasbining qanday taraflari sizga yoqadi? Huquqiy bilimlarni rivojlantirishda qonun va qonun osti hujjatlarining o'rni. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning natijadorlik holati.

Aholi o'rtasida huquqiy bilimlarni rivojlantirishda siz qanday tadbirlarni amalga oshira olasiz? Jamiyatda huquqni mensimaslikni bartaraf etishga doir choralarni tahlil qiling. Mamlakatimizda o'lim jazosini qayta tiklash bo'yicha turli fikrlar yuritilmoqda, bu qarashlarga sizning munosabatingiz. Jamiyatimizda qonunlarni ko'p buzilishiga sabab bo'layotgan omillar qaysi va ularni tahlil eting. Shaxs necha yoshgacha bola bo'ladi? Huquqiy davlat va ijtimoiy davlat, ularning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda qanday masalalarga oid qonunlarni qabul qilish lozim deb hisoblaysiz?

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror

qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

Tashkilotchilik jarayonida rahbar sifatida o'zingizni vazifalaringizni nimalarda ko'rasiz? Siz rahbarsiz, korxonada 1 ta ish o'rnini mavjud, ish o'rniga da'vogarlar 3 kishi, talab etilgan mutaxassislik bo'yicha magistr, bakalavr va o'rta maxsus ma'lumotli shaxslar. Ularni ish tajribalari 3 yil. Qaysi mutaxassisni ishga olasiz? Muammoli vaziyatga tushib qoldingiz, undan chiqish yo'llarini qaysi usullar bilan ishlab chiqasiz? Siz o'z oldingizga kasbiy karyera bo'yicha qanday maqsad qo'ygansiz? Sizningcha, tezkor va to'g'ri Qaror qabul qilish insoniyat faoliyatidagi qaysi fazilatlarga bog'liq?

Yuridik ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda qanday usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaysiz? Noaniqlik sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi muammoli holatni o'rganish bo'yicha qanday tavsiyalar berasiz? Tavakkalchilik sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimidagi muammoli holatni o'rganish bo'yicha takliflaringiz. Noaniqlik sharoitida oliy ma'lumotli yuristlarni tayyorlash tizimidagi muammoli holatni o'rganish bo'yicha tavsiyalariningiz. Yuridik ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimining yutuqlari mavjudmi. Kasb-hunar kolleji va texnikumlarning bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimining tahlili. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarning tizimli tahlili.

Mamlakat energiya potentsialining tizimli tahlili. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni va huquqbuzarlikni oldini olish profilaktikasi tizimi samaraliligining tizimli tahlili. Mehnat migratsiyasi masalalarining tizimli tahlili. Oliy ta'lim yurisprudensiya yo'nalishi talabalarining analitik qobiliyatlarini mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili. Ta'lim va tarbiyaga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish masalalarining tahlili. Siz tashkilotning yuristi bo'lib ishlaysiz, ishga har kuni o'z vaqtida kelmaysiz, sizga intizomiy chora ko'rish to'g'rimi? Siz rahbarlik qilayotgan byudjet tashkilotida farzandlaringiz va 2 ukangiz ishlaydilar, ulardan biri sizga o'rinbosar, ushbu holatni Mehnat qonunchiligi nuqtai -nazaridan tahlil eting, qonun buzilganmi? Siz faoliyat ko'rsatayotgan muassasada kadrlar qo'nimsizligi va ijtimoiy muhit buzilgan, qanday tadbir qo'llaysiz? Siz o'qish va mehnat faoliyatingiz davomida mavjud muammolarni yakka tartibda yoki jamoaviy tarzda hal qilishni ma'qul ko'rasizmi.

Oliy ta'lim tizimida, ayniqsa, yuridik oliy ta'limda talabalarga tarbiyaviy ishlarni olib borish shartmi, bunga fikringiz qanday? Siz faoliyat yuritayotgan korxonada yuqori idoraning topshiriqlari o'z vaqtida bajarilmay to'planib qolgan, sizga yuklatilgan va ma'sulligingizdagi barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib bo'lgansiz, biroq, siz faoliyat yuritayotgan bo'limga tegishli bajarilishi lozim bo'lgan boshqa xodimlarni ishlarini sizga yuklatildi, norozi bo'ldingiz, sizni bu boradagi pozitsiyangiz qanday?

Korxonada, tashkilot va muassasalarda kadrlarni ishga qabul qilish jarayonida qanday tartiblarni qo'llashni tavsiya etasiz. Siz qonuniy dam olish kuni tashkilot rahbariyati tomonidan ishga chaqirildingiz, ushbu holatga munosabatingiz. Majburiy mehnatni siz qanday tushunasiz? Sizni sevgan kasbingiz bo'yicha yaxshi lavozimga ishga taklif etishdi, faqat 3 (uch) oy oylik ish haqqisiz ishlashingiz sharti belgilandi, bunday holatda qanday yo'l tutasiz? Siz o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis bo'lib ishlayapsiz, malaka va tajribangiz yetarli rivojlangan, sizni ish o'rningiz oliy ma'lumotli kadr talab etilgan ish o'rni, mutaxassis bo'lmaganligi sabab ishlab keldingiz, oliy ma'lumotli kadr keldi, siz ish joyini bo'shatish bo'yicha rahbariyat tomonidan ogohlantirildingiz, sizning huquqlaringiz qanday va siz ko'radigan tadbir? Huquqiy sohada faoliyat yuritishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjudmi, kimlarga bu talablar belgilanadi? Kasbiy malaka va tajribaga ega bo'lmagan shaxslarni sohada faoliyat yuritishlariga munosabatingiz. Ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga uch tomonlama shartnomalarni talab etish holatiga fikringiz. Ichki ishlar idoralari tizimi va miqyosida juda katta ekani barchamizga ma'lum. Ichki ishlar tizimida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lmagan kadrlar faoliyatiga munosabatingizni bildiring. Xodimning o'z vakolat doirasidan chiqishi va uning oqibatlari. Siz tomondan soha xodimi sifatida qanday kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etish lozim, deb o'ylaysiz?

Prokuratura idoralarida kadrlarni tanlab olishda meritokratiya (munosib kadrlarni tanlab olish) printsipini qo'llanishi bo'yicha sizni fikringiz. Tashkilotda ishni to'g'ri tashkil etishda qanday tadbirlar muhim hisoblanadi? Xodimlarni sizni rahbarlik faoliyatingizdan norozi, siz 5 yil muddatga tayinlangansiz, ular boshqa shaxsni rahbarlikka tavsiya qilishmoqchi, sizni munosabatingiz.

Korxonada mas'ul lavozimda ishlaysiz, rahbaringiz tomonidan noqonuniy ishlarni qilishga talab etildi. Agar bu talablarni bajarsangiz, jinoiy javobgarlikka tortilishingiz mumkin, bajarishdan bosh tortsangiz rahbaringiz sizni ishdan bo'shatib yuborishini ta'kidlagan, siz qanday yo'l tutasiz. Rahbarligingizdagi tashkilotda tajribali ikki mutaxassis xodimlar o'zlari alohida oilali bo'laturib, tashkilot hududida yoki tashqarida o'zaro ishqiy munosabatda bo'lib kelganliklari aniqlandi, har ikki xodim o'z ishini egalari, malakali, ish joyida tartibli mehnatkash xodimlar. Siz bunga qanday chora ko'rasiz? Sizni tashkilotingizda o'z ishini ustasi bo'lgan ikki ma'naviy jihatdan nosog'lom xodimlarni faoliyatiga munosabatingiz.

Huquqiy tartibot sohasida tavakkalchilikni o'rni qanday? Sohada xodimlarni pensiya yoshidan keyin ham faoliyat yuritishlariga sizni munosabatingiz. Rahbar tomonidan tashkilotda xodimlarni ishchanlik kayfiyatini tushirib yuborilishiga qonunchiligimizda himoyalaniq qanday belgilangan. Ish koeffitsenti juda past bo'lgan xodimga siz ish taklif etasizmi? Siz mehnat faoliyatida bir necha marta mehnat bilan bog'liq huquqlaringiz buzildi, siz murosasiz kadrsiz, bu holat qancha davom etadi, siz bunday jarayonga rozimisiz? Siz rahbarsiz, mehnat intizomiga rioya etmaysiz, qo'l

ostingizdagi xodimlardan buni talab qilishga ma'naviy xaqqingiz bor, deb o'ylasizmi?

Agar korxonada, muassasa va tashkilotlarda guruhbozlik mavjud bo'lsa yoki bu holat rivojlangan bo'lsa qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim. Xodim sifatida sizga bajarayotgan ishingizga nisbatan kam haq to'lanyapti, siz oylik maoshingizni oshirish bo'yicha rahbarga murojaat qilasizmi? Tashkilot rahbarining qanday fazilatlarini qadrlash lozim, deb bilasiz? Huquqshunoslik kasbi inson taqdiri bilan bog'liq, siz sohada ishlab, faoliyatingiz jarayonida insonlarga adolatsizlik qilishdan qo'rqasizmi? Adolatlilik va xolislikni nimalarda ko'rasiz? Yurist kasbida faoliyat yuritdingiz, ma'lum muddatdan keyin sizni bu sohadan chetlashtirishda, sohada faoliyatingizga ta'qiq qo'yildi, boshqa kasbingiz yo'q, hunaringiz yo'q, sizga ish juda ham kerak, qanday chora ko'rasiz?

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar va ularning mazmuni xaqida gapirib bering. Huquqiy madaniyat darajasiga qarab huquqiy ong qaysi turlarga bo'linadi? Ular haqida umumiy ma'lumot bering. Fuqarolik tushunchasi, uning huquqiy asoslari. Fuqarolikning o'zgarishi va uning tartiblari. Huquq normalari tushunchasi, belgilari. Yuridik amaliyot tushunchasi. Davlatning vujudga kelishi haqidagi turli nazariyalar. Huquq normasining tuzilishi: gipoteza, dispozitsiya va sanktsiya. Yuridik amaliyot tarkibi, turlari va funktsiyalari. Jamiyatning siyosiy tizimi. Huquq normalarini turli asoslarga ko'ra tasniflash. Huquqiy xulq-atvor: tushunchasi, turlari. Davlat hokimiyati-ijtimoiy hokimiyatning muhim shakli sifatida. Huquq shakllari (manbalari) tushunchasi va turlari. Huquqbuzarlik tushunchasi va belgilari. Davlat tushunchasi va mohiyati. Huquqiy odat - huquqning qadimgi manbaasi sifatida. Huquqbuzarlik subyekti va obyektivi, subyektiv va obyektiv tomoni.

Davlatning belgilari. Huquqiy pretsedent: tushunchasi, turlari. Yuridik javobgarlik: tushunchasi, belgisi, turlari. Huquq ijodkorligi tushunchasi va turlari. Huquqiy-tartibot tushunchasi va obyektiv zaruriyati. Davlat mexanizmida hokimiyatlar bo'linishi tamoyili: nazariya va amaliyot. Qonun ijodkorligi jarayoni: tushunchasi, printsiplari va bosqichlari. Hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizimlari tushunchasi va tasnifi.

Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasi va uning asoslarini tahlil eting. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va uning vakolatlarini aytib bering. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlariga to'xtalib o'ting. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va munosabatlar haqida muhokama qiling. Umumyurisdiksiya sudlari qaysi turdagi sudlarni o'zida birlashtirishini muhokama qiling. Umumyurisdiksiya

sudlari nima sababdan ikki bo'g'indan iborat shaklda tashkil etilgan deb o'ylaysiz. Javobingizni asoslang.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tuzilishi va tizimini tahlil eting. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyati nimalardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan Prokuratura organlarining hay'atlarini tashkil etish tartibi hamda ularning asosiy faoliyati nimalardan iborat ekanligini aytib bering. So'ngi yillarda prokuratura organlari faoliyati bilan bog'liq milliy qonunchiligimizda yuz bergan o'zgarishlarni tushuntirib bering. Shaxs, jamoat va davlatning xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarini tushuntirib bering.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligini tashkil etilishi va uning faoliyatining asosiy printsiplari nimalardan iborat. Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushuntirib bering. Davlat xavfsizlik xizmati faoliyatining asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi vakolatlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat ekanligini bayon eting. Huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar va ularning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalari va funksiyalarini izohlab bering. Davlat xizmatlari agentligining asosiy vazifalari nimalardan iborat. Mehnat shartnomasi, shakli, muddati, taraflar. Jinoyat tushunchasi, tarkibi. Jinoiy javobgarlik va uning javobgarlik uchun jazo turlari. Fuqarolik huquqiy javobgarlikda da'vo tushunchasi. Ma'muriy huquq subyektlari va obyektlari. Xalqaro huquqiy tashkilotlar va ularning faoliyat yo'nalishlari. Jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilikni o'rni qanday?

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak //T.:“O‘zbekiston. – 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi //https:// www.prezident.uz/uz/list/3324
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 y. PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz

Asosiy adabiyotlar

Milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021. – 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –2023- yil 30aprel
3. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son, 09.01.2019 y., 03/19/512/2435-son.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 434-II-son Konstitutsiyaviy qonuni. // 12.12.2002 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 12-son, 215-modda.
5. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 432-II-son Konstitutsiyaviy qonuni // 12.12.2002 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 12-son, 213-modda.
6. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 103-I-son Konstitutsiyaviy qonuni // 31.05.2017 y. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 22-son, 407-modda.
- 7.“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 522-II-son Qonuni // 29.08.2003 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 136-

modda.

8. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 523-II-son Qonuni // 29.08.2003 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003 y. 9-10-son, 137-modda.

9. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 704-II-son Qonuni // 02.12.2004 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004 y. 15-son, 155-modda.

10. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining (Yangi tahriri) O‘RQ-591-son Qonuni // 10.12.2019 y. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019 y., 03/19/591/4130-son.

11. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining (Yangi tahriri) 265-II-son Qonuni 30.08.2001 y. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001 y. 9-10-son, 176-modda.

12. O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. – 2006, № 41. – 406-modda

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 07 fevraldagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y., 06/18/5505/1639-son; 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PF-5987-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni

Asosiy adabiyotlar (bazaviy)

1. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – 528 b.

2. Saydullaev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –Toshkent: TDYUU, 2018. – 220 b.

3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.

4. Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik. Pod red. Abduraxmanova K.X. – M.: Ros. ekon. akad., 2008. – 620 s.

5. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T. Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.

6. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. Darslik. – TDYUU, 2018. – 181b.

7. O. Karimova, N. Ismatova, Sh. Sariqov, O. Amanova. O'zbekiston davlat va huquq asoslari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etgan. "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019.
8. V. A. Kostetskiy. Давлат ва ҳуқуқ асослари. О'рта та'лим мактабларининг 10-синфи ва о'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Toshkent «Yangiyo'l Poligraf Servis» 2017.
9. N. Ismatova, O. Karimova. Давлат ва ҳуқуқ асослари. О'рта та'лим muassasalarining 11-синфи ва о'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik. Toshkent «Yangiyul Poligraph Service» 2018
10. Boshno S. The subject and the method of the Theory of Law and State (Jurisprudence) // Law and modern States. 2015. –№6. – P. 69-82.
11. Coleman J., Shapiro S. Jurisprudence and philosophy of law. – New York: Oxford University Press, 2004. –1041 p.
12. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021. – 552 b.

Internet manbaalari

1. <http://www.tsul.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.norma.uz>
4. <http://www.edu.uz>